Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 1

RAQAMLASHUV JARAYONIDA INSON MAVJUDLIGI VA IJTIMOIY TAFAKKUR DIALEKTIKASI MASALASIGA DOIR

Farrux Abduraxmanovich Yuldashev*
Farg‘ona davlat universiteti, Falsafa kafedrasi dotsenti, f.f.b. f.d. (PhD)
✉ farruxyuldashev @gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida jamiyat va inson hayotida ekzitetsializm hamda ijtimoiy tafakkurni shakllantirish masalalari, dunyoqarash, ong, mustaqil qarashlar, ilm-fan taraqqiyotida, ijtimoiy bilimlar, xususan falsafiy fikrlarni o‘stirish orqali ijtimoiy tafakkurning uyg‘unligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar

jamiyat, dunyoqarash, taraqqiyot, tafakkur, maqsad, ehtiyoj, globallashuv, mustaqil fikrlash, inson faoliyati, ma’rifatli avlod.

DOI: 10.5281/zenodo.23279169

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari axborot va bilimning asosi bo‘lgan axborotlashgan jamiyatni shakllantirib, inson faoliyatida moddiy manfaat va ehtiyojlarni qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini yo‘qotgan, o‘z maqsadi yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor avlodni paydo bo‘lishini yuzaga keltirmoqda. Jamiyatda yosh avlodning bilimi va tafakkurini o‘stirish, ularni muayyan maqsad va ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ilm-fan, xususan falsafiy bilimlar orqali tadqiq etish dolzarblashib bormoqda. XXI asrdagi turli ijtimoiy siyosiy muammolarning keskinlashuvi, dunyo mafkuraviy manzarasining o‘zgarishlari, global taraqqiyotga xos bo‘lgan xususiyatlarni ehtiborga olib, ijtimoiy hayotda falsafiy dunyoqarashni yuksaltirish zarurati kelib chiqmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’rifatli avlodni jismoniy va aqliy, ma’naviy, siyosiy, ruhiy hamda xuquqiy jihatdan kamolotga erishishda yoshlar tafakkuri, intilishlarini e’tiborga olish, ta’lim sohalarini yanada rivojlantirish, jamiyatimiz rivojlanishining bugungi bosqichida kamolotga erishish maqsadlariga qaratilgan ana shu jarayonlarni amalga oshirishda birinchi navbatda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to‘g‘ri yo‘lidir[1]. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim va tarbiyaga inson doimo ehtiyoj sezib kelgan. Jamiyat taraqqiyotini belgilashda bevosita yoshlar ongi, bilimi va tafakkuri, o‘z navbatida ta’lim-tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. Nega deganda tarbiya insonning barhayotlik va mavjudligining asosiy sifati hisoblanib, inson hayotdagi tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o‘zining ma’naviy olamini boyitib boradi. Jamiyatning yangi bosqichi O‘zbekistonda barqaror fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari, olib borilayotgan islohotlar va modernizatsiyalashuv jarayonlari «Inson qadri uchun» tamoyili asosida farovon hayot, inson xuquqlari va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar belgilandi[2]. Dunyoda yoshlar manfaatlarini ta’minlash, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish, hududlarda ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy hayotdagi dinamik va statik holatlarini vujudga keltiruvchi omillarini aniqlash maqsadida amaliy tadqiqotlar olib borish zarur.

Yangicha tafakkur, bugungi yangilanishlar insonga katta imkoniyatlarni yaratmoqda. Mamlakatimizda aholining barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olinishini ta’minlash maqsadida adolatli ijtimoiy

siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish asosida yoshlar muammolari, ularning bilim olishi, bandligi, yoshlar o‘rtasida ishsizlikni qisqartirish, yoshlarning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda inson faoliyati uchun yangi muhit yaratildi, odamlarda daxldorlik hissi va jamiyat taqdiri uchun mas’uliyat oshib bormoqda. Inson ehtiyojlari, erkinliklari va huquqlarini ta’minlash, mamlakatda uchinchi Renessansni barpo etish bilan uyg‘un xolda olib borilishi real voqelik ekanligini ta’kidlab o‘tish zarur. Shu sababli bugungi o‘zgarishlar zamonida faollikni o‘stirish, o‘zgarish va yangilanishlarda yoshlarning minnatdorchilik xissini shakllantirish muhimdir. “Odam hayotda farovonlikka erishish uchun o‘zgarishlarni anglab yashashi kerak. Chunki taraqqiyotga turg‘un fikrlar emas, yangilanishlar xizmat qiladi”[3]. Inson dunyoqarashini shakllanishi uning jamiyatda faolligi, yangilikka intiluvchanligi, o‘ziga bo‘lgan ishonch orqali amalga oshadi. Ta’kidlash kerakki, “Bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan”[4] zamonda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bois yoshlarni halol kasb bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratib berish eng zaruriy yechimlardan biridir. Yoshlar hech qachon o‘zining asosiy maqsadini amalga oshirish yo‘lidan chalg‘imasligi kerak. Halol kasb bilan tirikchilik qilish yoshlarni boqimandalik, tilanchilik va ta’magirlikdan to‘sadi va shu bilan birga uning uchun luqmasi xalol bo‘lishidek manfaatni keltiradi. Ilm va kasb-xunar bir-birini to‘sishi kerak emas, balki xar ikkalasi mujassam bo‘lib, birgalikda taraqqiy topishi lozim. Yoshlar ilm, hunar bilan shug‘ullanmas ekan, tamagirlik, birovlardan umidvorlik illatiga ruju qo‘yadi. Kasb-hunar insonni mana shunday illatlardan saqlashga vosita bo‘ladi.

Yurtimizda xalq bilan muloqotning yangi va samarali tizimi joriy etildi. Yoshlar manfaatlarini ta’minlashning bir muhim jihati qishloq joylaridagi yoshlarning hayot darajasi va sifatini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Hududlarda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, har qaysi oilaning, ezgu maqsadlarini, hayotiy manfaatlarini ta’minlashga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Bu borada jamiyatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, yoshlarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash masalasida davlat tomonidan zarur sharoitlar yaratilib, muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan davrda yoshlar oldida yangi-yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Jamiyat hayotining turli murakkab jarayonlari yoshlar muammolarini yechishga qaratilgan voqeliklar bilan bog‘liq ravishda kechmoqda. Jamiyat hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyatining o‘sib borishi, ma’naviy ehtiyojlar bilan bog‘liq masalalarni doimiy o‘rganib borish zarurligini ko‘rsatadi. Ma’naviyat insonga o‘ziga xos betakror mohiyat, imkoniyat baxsh etadi va jamiyat a’zolarini birlashtiradi, uyushtirib turadi. Ma’naviyat jamiyat, insonning kuch-qudrati, kelajakka ishonchi, imkoniyatlarini ko‘rsatib bera oladigan muhim omil hisoblanadi[5]. Bugungi dunyoning bir qismiga aylangan globallashuv jarayonlari ijtimoiy – siyosiy hayot, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish, mafkuraviy tahdidlar, geosiyosiy nayranglar ortidagi manfaatlarni aql ko‘zi orqali anglab olish orqali sa’y-harakat qilish milliy xarakterga aylanayotgan bir davrda ehtiyojlar yo‘nalishi va maqsadlarini tadqiq etish istiqbol uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Jamiyatda har qanday hodisa kabi ehtiyojlarning tahlili turli sohalar, ulardagi jarayonlar, o‘ziga xos masalalar bilan chambarchas bog‘liq. Shunga asosan, tadqiqotlar tahlili natijasida har tomonlama asoslangan nazariy xulosalarni va amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Demokratik jamiyatda har bir inson erkinligi, ma’naviy qiyofasi tufayli shaxsdir. Ma’naviyat dunyosida yaratuvchilik uchun erk lozim. Qullikdan, qaramlikdan ozod bo‘lish ruh erkinligidan boshlanadi. Ruh erkinligi esa o‘z navbatida o‘zlikni anglashdan boshlanadi. Axloqsizlikni yuzaga keltiruvchi har qanday erkinlik ijtimoiy tartibga zid bo‘lishi mumkin. Shaxs erkinligi ham faqatgina ijtimoiy tartib doirasidagina mavjud bo‘ladi. Mazkur tartibning ustuvor bo‘lishi uchun jamiyatning har bir fuqarosini komillikka yetaklovchi g‘oyalarga amal qilishga o‘rgatish zarur. Bunday g‘oyalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanishi, o‘z navbatida komillikka intilish bilan ehtiyoj va manfaatlarni namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin. Davlatimizning oqilona siyosati yoshlarga ana shunday ehtiyoj va manfaatlarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlarni ochib berdi. Buning uchun birinchi navbatda yoshlar faoliyatida o‘z maqsadlarini to‘g‘ri qo‘yish, milliy g‘oyani ular ongi va qalbiga singdirish orqali ma’lum muammo va masalaga ijobiy yondashiladi.

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish bilan bog‘liq masala g‘oyat muhimdir. Ushbu jarayonda birinchi navbatda yoshlarda sog‘lom tafakkurning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Olam va borliqni anglashda, olamda yaxshilik va yomonlik, foyda va ziyon, mashaqqat va yengillik kabi tushunchalar ustida inson tafakkur

qilishi zarur. “Yolg‘iz tafakkurgina insonni borliqdagi ulug‘ligini ko‘rsatadi. Tafakkurning foydasi ilmni ko‘paytirish va hosil bo‘lmagan ilmni jalb etishdan iborat”[6]. Shunga ko‘ra bugungi kunda yoshlarga falsafiy, mantiqiy bilimlarni singdirish bilan, ularni tafakkur qilishga, bilim va ma’rifatini yuksaltirishga erishiladi. O‘z navbatida manfaat taraqqiyotiga nisbatan oldinda harakat qilib, ehtiyoj bilan manfaat avvalo mehnat jarayonida shakllanadi. Shuning uchun bugungi kunda yoshlarni, insonlarni mehnat faoliyatini o‘stirish muhim ahamiyatga ega. “Odamlarning dunyoqarashi, mehnatga munosabati o‘zgarmoqda. Dunyoqarashni nima o‘zgartiradi? Ilm, daromat, manfaat”. Demak, yoshlar dunyoqarashini o‘zgartirish bilan uning faoliyati, bilimi, maqsadi va qarashlarini ham ijobiy tomonga yo‘naltiriladi. Kishilarning aql, intilish va qarashlarining rang-barangligi insonning ijtimoiy aloqa qilish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bu jarayonda birinchi navbatda axloqiylik muhim rol o‘ynaydi. Foyda, ehtiyoj, o‘zaro manfaatdorlik, oqilona ish tutish kishilar xatti-harakatini axloqiylikka yo‘naltiradi.

Ehtiyoj va manfaatlar masalasini o‘rganishning nazariy – metodologik asoslarini ishlab chiqishda ma’lum murakkab jihatlarga e’tibor qaratildi. Jumladan: istiqlol davrida ijtimoiy fanlarda mavzuga tegishli keng qamrovli, ko‘p qirrali ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ammo ehtiyoj va manfaatning inson psixologik tabiatidagi xususiyati, o‘zaro bilan bog‘liq tomonlari juda kam yoritilganligi sababli jamiyat taraqqiyotida ehtiyojlar inson omilining tabiiy xarakatlantiruvchi kuchi ekanligi ilm-fanda yanada kengroq tadqiq etilishini taqozo etadi. Ya’ni;

-inson ehtiyojlari muammosi XX asr G‘arb ilm-fanining yetakchi mavzusiga aylandi. Lekin G‘arb olamiga xos bo‘lgan xususiyat, muammoni konkret iqtisodiy taraqqiyot va samaradorlikni hal qilish uchun tadqiq etish ehtiyojlarni ma’naviyat bilan bog‘liq kontekstda emas, balki, pragmatik, iqtisodiy hamda strategik yo‘nalishga bog‘lab o‘rganish holatini keltirib chiqardi;

-inson ehtiyojlarining serqirraliligi, uchinchi ming yillikdagi barcha tabiiy-ekologik, siyosiy, ma’naviy destruktivlik holatlari insonlarning cheksiz–chegarasiz, nazoratdan tashqaridagi ehtiyojlarining namoyon bo‘lishi, qolaversa ehtiyojlar xilma-xilligi murakkablik kasb etishini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida ehtiyoj va manfaatlarga doir iqtisodiy, psixologik, sotsialantropologik, tarixiy bilimlarni ijtimoiy falsafa sohasida sintezlashtirishga va tushunchalar tizimi hamda kategorial apparatni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilganda, inson ehtiyojlarining namoyon bo‘lishi doimiy o‘sib boruvchi va bir-birini mazmun jihatdan to‘ldiruvchi tushunchalardir. Bugungi XXI asr insoniyatdan sog‘lom ehtiyojni shakllantirishni, taraqqiyot sari qadam tashlashni va o‘zida yangi ehtiyojni hosil qilishga undamoqda. Ushbu jarayonda yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashga e’tibor berish, ularni himoyalash, fikrlarini xisobga olish talab etiladi.

References

[1]
1. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. president.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий Веб-сайти. 20.12.2022
2. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Адолат миллий хуқуқий ахборот маркази. 2022. –Б.4.
3. Эргашев И. Фалсафий мулоҳазалар // “Жамият ва бошқарув” 2009. №4. –Б. 21.
4.
5. Ш.М.Мирзиёев Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 386.
6. Номуратова М.К. Жамият тараққиётидаги маънавий эҳтиёжларнинг фалсафий таҳлили. 09.00.11 – ижтимоий фалсафа бўйича Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация Автореферати. Тошкент-2011. Б. 3-4.
7. Абу Ҳомид Ғаззолий. Иҳёу улумиддин. Дунёни англаш китоби. –Тошкент: “Шарқ”, 2015. – Б. 225-226